UO‘K: 004.8

SUN’IY INTELLEKT VA KIBERONG: ONGNING TRANSFORMATSIYASI

X.N. Xolmirzayev

Maqolada kiberong tushunchasi falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Inson ongi va sun’iy intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik, ong xususiyatlarini raqamli muhitga ko‘chirish imkoniyatlari, buning ijtimoiy hamda axloqiy oqibatlari tadqiq etilgan. Kiberongning an’anaviy ongdan farqi, metavers konsepsiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, virtual hayot bilan haqiqiy hayot o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, inson ongiga xos xususiyatlarni raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy va etik muammolar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *kiberong, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, ong, metavers, neyrotexnologiya, subyektiv tajriba, axloq, raqamli muhit, virtual hayot.*

В статье анализируется понятие киберсознания с философской точки зрения. Автор рассуждает о взаимосвязи между человеческим сознанием и искусственным интеллектом, возможностях переноса сознания в цифровую среду, социальных и нравственных последствиях этого процесса. Освещены отличия киберсознания от традиционного сознания, его значение в концепции метавселенной и взаимоотношения между виртуальной и реальной жизнью. Также рассматриваются правовые и этические проблемы, возникающие в процессе оцифровки человеческого сознания.

Ключевые слова*: киберсознание, искусственный интеллект, оцифровка, сознание, метавселенная, нейротехнологии, субъективный опыт, этика, цифровая среда, трансформация личности, виртуальная жизнь.*

Kirish

Kiberong (*Cyberconsciousness*) murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u inson ongi va sun’iy intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlikni, shuningdek, ongni raqamli muhitga ko‘chirish imkoniyatlarini qamrab oladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga bu konsepsiya falsafa, kognitiv fanlar va kibernetika nuqtayi nazaridan faol o‘rganilmoqda. Kiberong inson ongining tabiati, uning raqamlashtirilishi va texnologiya bilan integratsiyasiga oid falsafiy va texnologik masalalarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi globallashgan va raqamlashgan dunyoda axborot almashinuvi tezlashgani va sun’iy intellekt tizimlari inson hayotining ajralmas qismiga aylangani sababli kiberong mavzusi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kiberong muammosi inson ongiga xos xususiyatlarni virtual muhitda shakllantirish, sun’iy intellekt vositasida uning imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli jamiyatda individuallik modellarini yaratish kabi masalalardan iboratdir.

Material va usullar

Ushbu tadqiqotda falsafiy, kognitiv va texnologik manbalar majmuasi asosiy material sifatida tanlandi. Falsafiy qarashlardan R.Dekartning ong va modda o‘rtasidagi dualizm konsepsiyasi, E.Gusserlning fenomenologik yondashuvi, J.P.Sartrning ekzistensializm asosidagi subyektiv tajriba talqini, D.Dennettning ongni emergent jarayon sifatida talqin etishi, R.Kursveylning transgumanizm va ongni raqamlashtirish haqidagi g‘oyalari, J.Syorlning ongni algoritmik modellashtirishga nisbatan tanqidiy qarashlari o‘rganildi. Shuningdek, ongni texnologik jihatdan simulyatsiya qilishga oid “Ko‘k miya loyihasi” (“Blue Brain Project”), “Neyrouzatuvchi bog‘lanma” (“Neuralink”) kabi zamonaviy loyihalar, GPT-4 modeli va kvant hisoblash texnologiyalari haqidagi ilmiy hisobotlar ham tadqiqot materiallari sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

Falsafiy-analitik tahlil – ong va kiberong tushunchalarining mohiyatini ontologik, gnoseologik va antropologik nuqtayi nazardan aniqlash.

Komparativ tahlil – an'anaviy ong nazariyalari va kiberong konsepsiyalarini tarixiy va zamonaviy manbalar asosida qiyoslash.

Gnoseologik tahlil – ongning bilish jarayonlari va ularni raqamlashtirish imkoniyatlarini falsafiy nuqtayi nazardan baholash.

Texnologik-metodologik tahlil – sun'iy intellekt, neyroilm va kvant hisoblash misolida ongni raqamli muhitga ko'chirish imkoniyatlarini o'rganish.

Normativ-axloqiy tahlil – ongni raqamlashtirish va kiberong yaratish jarayonining axloqiy va huquqiy oqibatlarini baholash.

Tanlangan materiallar va qo'llanilgan metodlar tadqiqot mavzusini kompleks o'rganishga, kiberong tushunchasining nazariy asoslarini aniqlashga va texnologik istiqbollarini falsafiy jihatdan tahlil qilishga imkon berdi.

Natijalar

Kiberong va an'anaviy ong o'rtasida qator umumiyliklar va farqlar mavjud. Ikkalasi ham ma'lumotni qayta ishlash qobiliyatiga, qaror qabul qilish imkoniyatiga va kognitiv jarayonlarda ma'lumotlarni tahlil qilish va chiqarish xususiyatiga ega. Biroq ular o'rtasidagi farqlar ham anchagina. An'anaviy ong subyektiv tajribaga ega bo'lib, inson his-tuyg'ulari, shaxsiy tajriba va fikrlash jarayoniga bog'liq bo'lsa, kiberong faqat algoritmik modellar orqali ishlaydi. An'anaviy ong fiziologik cheklangan, u inson miyasi va asab tizimi bilan bog'liq holda ishlaydi, kiberong esa nazariy jihatdan, cheksiz yodlash va qayta ishlash qobiliyatiga egadir. An'anaviy ong inson shaxsiyati va xotiralari asosida shakllanadi, kiberong esa modellashtirilgan raqamli tizimga bog'liq bo'ladi.

An'anaviy ong inson tajribasi va subyektiv voqelik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning asosiy xususiyati onglilik va o'zgaruvchanlikdir. Kiberong esa texnologik modellar asosida inson ongini raqamlashtirish imkoniyatini taklif etadi. Biroq falsafiy nuqtayi nazardan inson tafakkuri algoritmlar orqali to'liq takrorlanishi mumkinligi hali isbotlanmagan.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va kiberong tushunchalari murakkab falsafiy va texnologik masalalarni o'rtaga qo'ymoqda. Kiberong inson ongi imkoniyatlarining raqamli muhitda mavjud bo'lishi va virtuallashtirilishi haqidagi g'oya bo'lib, sun'iy intellekt esa ma'lumotlarni qayta ishlash va intellektual vazifalarni bajarish uchun yaratilgan algoritmik tizimdir. Lekin sun'iy intellekt haqiqiy ongni yaratishi mumkinmi? Bu savol falsafiy nuqtayi nazardan jiddiy tahlil talab etadi.

Kiberong inson ongining raqamli muhitda saqlanishi va virtual individuallik sifatida mavjud bo'lishi konsepsiyasini o'z ichiga oladi. Rey Kursveyl "Yaqinlashib kelayotgan yagona nuqta: Inson biologiyadan ustunlikka erishganda" ("The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology") nomli asarida ong va shaxsiyat to'liq raqamlashtirilishi mumkinligi haqidagi gipotezani ilgari suradi [1. B. 198]. Uning nazariyasiga ko'ra, neyron aloqalarining to'liq modelini yaratish orqali inson ongini raqamli muhitga yuklash mumkin.

Sun'iy intellekt esa inson tafakkuriga taqlid qiladigan algoritmlar va neyron tarmoqlardan iborat bo'lib, ma'lumotlarni tahlil qilish, patternlarni aniqlash va qaror qabul qilish vazifalarini bajaradi. Daniel Dennet "Tushuntirilgan ong" ("Consciousness Explained") asarida sun'iy intellekt onglilikka ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, ammo u ong faqat algoritmik jarayon emas, balki subyektiv tajriba bilan bog'liq ekanligini ham qayd etadi [2. B. 431].

Muhokama

Falsafiy nuqtayi nazardan kiberong tushunchasi ontologiya, gnoseologiya va antropologiya doirasida tadqiq qilinadi. Birinchi navbatda, ongning tabiati masalasi yuzaga keladi: Dekart ong va modda o'rtasidagi dualizmni ilgari surgan bo'lib, bu nazariyaga ko'ra, ong moddiy dunyodan mustaqil mavjuddir [3. B. 246]. Agar Dekart yondashuvini qabul qilsak, u holda ongni raqamli muhitga ko'chirish imkoniyati mavjud bo'lishi mumkin. Fenomenologiya va ekzistensializm tarafdorlari, xususan, Gusserl va Sartr ongni subyektiv tajriba sifatida qarab, uning to'liq modellashtirilishi shubhali ekanligini ta'kidlaydilar [4. B. 51–55; 5. B. 70–75]. Daniel Dennett ongga emergent jarayon sifatida qaraydi, uni algoritmlashtirish va sun'iy intellekt orqali qayta yaratish mumkin deb hisoblaydi [2. B. 511].

Texnologik jihatdan kiberongni amalga oshirish uchun bir nechta yo'nalish mavjud.

Neyroilmiy tadqiqotlar. Masalan, Genri Markerram tomonidan boshlangan "Ko'k miya loyihasi" ("Blue Brain Project") va Ilon Maskning "Neyrouzatuvchi bog'lanma" ("Neuralink") loyihalari miya faoliyatini raqamlashtirish ustida ish olib bormoqda [6; 7].

Kognitiv simulyatsiyalar, zamonaviy sun'iy intellekt modellari. Masalan, transformer neyron tarmoqlar (GPT-4) ma'lumotni qayta ishlash qobiliyatiga ega, biroq ular hali haqiqiy ongni imitatsiya qila olmaydi [8].

Kvant hisoblash va sun'iy neyron tarmoqlari esa kvant kompyuterlari va yangi turdagi algoritmlar orqali inson ongini simulyatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [1].

Ong xususiyatlarini raqamlashtirish va uni sun'iy muhitda qayta yaratish masalasida turli yondashuvlar mavjud. Optimistik qarash tarafdorlari, jumladan, Rey Kursveyl "Yaqinlashib kelayotgan yagona nuqta: Inson biologiyadan ustunlikka erishganda" asarida inson ongi va xotirasini raqamli muhitda saqlash imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydi [1. B. 198–199]. Biroq skeptik yondashuv vakillari, xususan, Jon Syorl "Ong, miya va dasturlar" ("Minds, brains, and programs") asarida algoritmlar inson ongini to'liq takrorlay olmasligini, faqat ma'lumotni qayta ishlash bilan cheklanib qolishini ta'kidlab, bunday raqamlashtirish g'oyasiga shubha bilan qaraydi [9. B.417–420].

Kiberong konsepsiyasi hozircha nazariy yondashuv bo'lib qolmoqda, biroq sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar va kognitiv fanlar rivoji bilan bu sohada yangi imkoniyatlar vujudga kelishi mumkin. Ongni raqamlashtirish muammosi faqat texnologik emas, balki falsafiy va axloqiy muammolarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli bu mavzudagi tadqiqotlar kelgusi yillarda ham dolzarb bo'lib qoladi.

Ong va uning mohiyati haqidagi masala falsafaning eng fundamental muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti natijasida inson ongi va tafakkuri yangi tushuncha – "kiberong" bilan taqqoslana boshlandi. Bu tushuncha inson ongi raqamlashtirilishi va virtual muhitda mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi nazariyalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, kiberong va an'anaviy ong o'rtasidagi farqlar ongning tabiati, uning tajriba va subyektivlik bilan aloqasi, intellektual jarayonlardan farqi masalalari bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi.

Falsafa an'anaviy ongni turli yo'nalishlarda o'rganib kelgan. Dekart ongni mavjudlikning eng ishonchli isboti sifatida ta'riflaydi [3. B. 28–30]. Fenomenologik yondashuvlarda Ermund Gusserl va Jan-Pol Sartr ongni subyektiv tajriba orqali anglash muhimligini ta'kidlashgan [4. B. 82—84; 5. B. 248]. Bundan kelib chiqadiki, ong inson tajribasi, his-tuyg'ulari va ongli qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Kiberong konsepsiyasi an'anaviy ong tushunchasiga raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlari bilan yangi yondashuvni taklif etadi. Rey Kursveyl o'z asarida inson va sun'iy intellekt integratsiyasi natijasida yangi turdagi kognitiv imkoniyatlar paydo bo'lishini, bunday birlashish inson tafakkuri tezligini keskin oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi [1. B. 259].

Sun'iy intellekt haqiqiy ongni yarata oladimi, degan savolga ikki xil yondashuv mavjud:

Funksionalistik yondashuv. Bu qarashga ko'ra, agar biror tizim inson ongining barcha funksiyalarini bajarsa, uni ongli deb hisoblash mumkin. Kognitiv fanlardagi ba'zi tadqiqotchilar va sun'iy intellekt mutaxassislari inson ongi asosan ma'lumotni qayta ishlash jarayoni ekanligini ta'kidlaydilar. Masalan, Devid Chalmers "Ongning ongli tabiati" asarida funksionalizm va kompyuter modellari asosida ongni yaratish ehtimoli haqida yozadi [10. B. 214].

Kvaliya va subyektiv tajriba. Ko'p falsafiy yo'nalishlarda, jumladan, Jon Syorlning "Xitoy xonasi argumenti" nazariyasida, sun'iy intellekt faqat ma'lumotni qayta ishlaydi, ammo subyektiv tajribaga ega emas, deb ta'kidlanadi [9. B. 423]. Bu yondashuvga ko'ra, algoritmlar va sun'iy neyron tarmoqlari inson ongi kabi "ta'sirlanish" va "xotira" orqali shakllanmaydi.

Bugungi kunda inson ongini raqamlashtirish va sun'iy ong yaratish bo'yicha bir nechta ilmiy loyihalar mavjud.

2005-yili Shveytsariyadagi Lozanna federal politexnika instituti (EPFL) professori Genri Markram rahbarligida tashkil etilgan "Ko'k miya loyihasi" ("Blue Brain Project") inson ongini raqamlashtirish va uning ishlash mexanizmlarini aniqroq tushunishga qaratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi miya tuzilmasini to'liq modellashtirish, uning kognitiv jarayonlarini o'rganish va sun'iy intellekt rivojlanishiga ilmiy asos yaratishdan iborat bo'lgan [6. B. 153].

"Neyrouzatuvchi bog'lanma" ("Neuralink") – Ilon Mask rahbarligida 2016-yilda tashkil etilgan innovativ biotexnologik kompaniya bo'lib, inson miyasini to'g'ridan to'g'ri kompyuterga ulash imkoniyatlarini tadqiq qilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi miya – kompyuter interfeysi (BCI – Brain-Computer Interface) orqali inson neyron faoliyatini raqamli muhit bilan bog'lash va miyaning kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. "Neyrouzatuvchi bog'lanma" ("Neuralink") – inson va texnologiya o'rtasidagi bog'lanishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ilg'or loyiha. U nafaqat nevrologik muammolarni hal qilish, balki insonning intellektual va fizik imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi mumkin. Garchi bu texnologiya hali rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanil ishi kelajakda tibbiyot, sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarida katta inqilob yaratishi mumkin [7].

Falsafiy va texnologik nuqtayi nazardan qaralganda, sun'iy intellekt hozircha haqiqiy ongni ya-

rata olmaydi. U ma'lumotni qayta ishlash va intellektual jarayonlarni simulyatsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, inson ongining subyektiv tajribasini qayta ishlab chiqa olmaydi. Agar kelajakda ongni raqamlashtirish imkoni paydo bo'lsa, bu, ehtimol, inson miyasining mukammal modelini yaratish va uni sun'iy muhitda simulyatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu sohadagi tadqiqotlar falsafa, neyrotexnologiya va sun'iy intellektni birlashtirgan holda davom etmoqda.

Ongni kompyuter yoki raqamli muhitga yuklash g'oyasi fan-texnika va futurologiyada keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Bu g'oya sun'iy intellekt, neyrotexnologiya va kognitiv fanlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson ongini raqamlashtirish, uni sun'iy muhitda saqlash va hatto yangi platformalarda tiklash imkoniyatini nazarda tutadi. Lekin falsafiy nuqtayi nazardan bu imkoniyat qanday baholanishi mumkin? Umuman, inson ongini kompyuterga yuklash mumkinmi?

Metavers (*Metaverse*) – bu virtual va fizik voqelikni birlashtiruvchi raqamli muhit bo'lib, inson ongi va subyektiv tajribalarini qayta shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu konsepsiya turli texnologik vositalar orqali amalga oshirilib, inson tafakkuri va jamiyat uchun yangi imkoniyatlarni hamda muammolarni yuzaga keltiradi. Kiberong tushunchasi esa, inson ongining raqamli muhitda mavjud bo'lishi mumkinligini ko'zda tutadi.

Metavers konsepsiyasi raqamli muhit orqali inson tafakkurini kengaytirish imkoniyatini beradi. Nik Bostrom "Siz kompyuter simulyatsiyasida yashayapsizmi?" ("Are You Living in a Computer Simulation?") nomli maqolasida butun voqelik raqamli muhitda mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi gipotezani ilgari suradi [11. B. 243]. Bu yondashuv metavers doirasida insonning voqelik haqidagi tushunchasini o'zgartira olishi mumkinligini ko'rsatadi. Kiberong rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilar: virtual muhitda inson shaxsiyati transformatsiyasi, raqamli ong va sun'iy intellekt. Virtual olamda inson o'zini real dunyodagi individual holatidan farqli tarzda namoyon etishi mumkin. Bu konsepsiya shunchaki avatar orqali emas, balki to'liq kiberong sifatida mavjud bo'lish imkoniyatini ko'zda tutadi [11. B. 205] Metavers muhitida inson tafakkuri sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar bilan integratsiyalashgan holda ishlay oladi. Bunga "Neuralink" kabi loyihalarning rivojlanishi misol bo'la oladi [7].

Metavers inson tajribasini bir necha muhim jihatlar bo'yicha o'zgartiradi. Jan Bodriyyar "Simulyakrlar va simulyatsiya" asarida voqelik va uning simulyatsiyasi o'rtasidagi farq yo'qolishi haqida yozgan [12. B. 205]. Metaversda inson voqelikni virtual muhit orqali qayta yaratadi va bu sekin-asta haqiqiy hayot bilan birlashib ketadi. Texnologiya yordamida inson xotiralari, his-tuyg'ulari va hatto shaxsiyati ham raqamli muhitda qayta yaratilishi mumkin. Bu esa kiberong tushunchasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi [13. B. 112]. Metavers virtual jamiyatlar yaratilishiga olib keladi, bu esa shaxslararo aloqalarni yangi shaklga olib chiqadi. Masalan, virtual muhitdagi individlar o'rtasidagi muloqot va ularning bir-biriga ta'siri haqiqiy dunyodagi munosabatlardan keskin farq qilishi mumkin [10. B. 87].

Metavers konsepsiyasi kiberong rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u inson tafakkurini virtual muhitga olib o'tish imkonini beradi. Kiberong konsepsiyasi haqiqat va virtuallik tushunchalarining qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'ladi va inson ongining yangi shakllarini yaratish imkonini yuzaga keltiradi. Lekin bu jarayon axloqiy, ijtimoiy va falsafiy savollarni ham yuzaga chiqaradi. Metavers inson tajribasini transformatsiya qilishi mumkin, ammo bu transformatsiya ongning mohiyati va shaxsiyatning uzluksizligini qanday o'zgartirishi hali noma'lum.

Inson ongini raqamlashtirish g'oyasi sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar va raqamli simulyatsiyalarning rivojlanishi natijasida ilmiy va falsafiy muhokamaning markaziy mavzulari qatoriga kirib bormoqda. Agar inson ongi to'liq raqamlashtirilsa, uning axloqiy, huquqiy va falsafiy oqibatlari qanday bo'ladi?

Ongni raqamlashtirish axloqiy nuqtayi nazardan bir qancha murakkab masalalarni yuzaga keltiradi. Birinchi navbatda, insonning shaxsiy hayoti va erkinligi masalasi turibdi. Agar inson ongi raqamlashtirilsa, uning shaxs sifatidagi mustaqilligi qanday ta'minlanadi? Devid Chalmers "Ongning ongli tabiati" asarida ongning subyektivligi tajribaga bog'liqligini ta'kidlaydi [10. B. 225]. Agar raqamli ong hech qanday his-tuyg'ularga ega bo'lmasa, u haqiqiy inson sifatida qaralishi mumkinmi?

Shuningdek, raqamlashtirilgan ong inson huquqlariga ega bo'lishi mumkinmi? Masalan, agar inson ongi kompyuterda mavjud bo'lsa, u o'z huquqlarini himoya qila oladimi yoki u biror korporatsiya yoki davlatning mulkiga aylanadimi? Jon Lokk "Ikki davlatchilik to'g'risidagi risola" ("Two Treatises of Government") asarida "shaxs va mulk o'rtasidagi munosabatni tushuntirib, shaxs o'z mehnati va fikri orqali mulkdor bo'ladi", – deb ta'kidlagan [14. B. 287]. Agar inson ongi raqamlashtirilsa, u kimga tegishli bo'ladi?

Raqamlashtirilgan ong huquqiy tizimda qanday maqomga ega bo'ladi? Agar inson ongi serverda yoki klaud platformasida saqlansa, uning huquqiy maqomi insonning tanasi bilan birga hisoblanadimi yoki u alohida shaxs sifatida tan olinishi kerakmi? Xalqaro

huquqshunoslar bu borada aniq bir xulosaga kelmagan, ammo sun'iy intellekt huquqlari haqidagi muhokamalar bu masalaga yorqin misol bo‘lishi mumkin. Masalan, Yevropadagi "Sun'iy intellekt" haqidagi qonunda sun'iy intellektning huquqiy maqomi xususida bir nechta yondashuvlar mavjud [15].

Shuningdek, agar raqamli ong o‘zini shaxs deb hisoblasa, u yuridik javobgarlikka tortilishi mumkinmi? Agar raqamlashtirilgan inson kiberxavfsizlik yoki moliyaviy firibgarlik kabi jinoyatlarda aybdor bo‘lsa, uning javobgarligi kimga yuklatiladi – uni yaratgan muhandislargami yoki uni boshqarayotgan tizimgami?

Ongni raqamlashtirish inson shaxsiyati va mavjudlik mohiyatiga oid fundamental falsafiy savollarni yuzaga keltiradi. Rey Kursveyl "ongni kompyuterga yuklash inson hayotini cheksiz uzaytirish imkonini beradi" deb hisoblaydi [1. B. 324 –326]. Lekin bunday jarayon insonning haqiqiy mohiyatini saqlab qolishi mumkinmi?

Ongni raqamlashtirish ontologik nuqtayi nazardan inson mavjudligining chegaralarini kengaytirishi mumkin. Agar inson shaxsiyati va xotiralari raqamli muhitda saqlansa, bu shaxs hali ham o‘sha inson hisoblanadimi yoki bu faqatgina uning nusxasimi?

Inson ongini raqamlashtirishning axloqiy, huquqiy va falsafiy oqibatlari hali to‘liq o‘rganilmagan va bu borada ko‘plab savollar ochiq qolmoqda. Axloqiy nuqtayi nazardan, raqamli ongning mustaqilligi va huquqlari qanday ta'minlanishi lozim? Huquqiy jihatdan bunday ong yuridik shaxs sifatida tan olinishi kerakmi? Falsafiy nuqtayi nazardan esa inson ongining mohiyati va uning raqamli muhitda saqlanish imkoniyati qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Shuning uchun bu mavzudagi tadqiqotlar kelgusi yillarda ham dolzarb bo‘lib qolishi tayin.

Kiberong – inson ongi va tafakkurining raqamli muhitda mavjud bo‘lishi haqidagi nazariya bo‘lib, u sun'iy intellekt, neyrobiologiya va virtual reallik sohalaridagi yutuqlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu konsepsiya kelajak jamiyatida falsafiy, ijtimoiy va texnologik nuqtayi nazardan jiddiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Kiberong jamiyatning turli jabhalarida, xususan, shaxsiyat tushunchasi, mehnat bozori, bilim olish va axborot almashish jarayonlariga jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Rey Kursveyl "inson ongi va sun'iy intellektning birlashishi orqali yangi tafakkur shakli paydo bo‘lishi"ni ta'kidlaydi [1. B. 384–388]. Agar inson ongi raqamlashtirilsa, shaxsiyat tushunchasi an'anaviy biologik tana bilan cheklanmay, raqamli muhitda ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Kiberong ishlash jarayonini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Agar insonlar o‘z ongini raqamli tarzda saqlab, masofadan turib ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsalar, jismoniy mehnat va ofis ishi konsepsiyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Bostrom "Superintellekt" asarida raqamlashgan onglar iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini yaratishi mumkinligini aytgan [16. B. 192–193].

Kiberong rivojlanishi insonning haqiqiy va virtual mavjudlik o‘rtasidagi chegaralarni yangicha talqin etishiga olib keladi. Jan Bodriyyar "Simulyakrlar va simulyatsiya" asarida zamonaviy texnologiyalar voqelikni idrok etish jarayonini belgilar va modellar tizimi orqali qayta shakllantirib, natijada inson bevosita haqiqatdan ko‘ra uning oldindan ishlab chiqilgan timsollari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishini ta'kidlaydi. Shu sababli metavers va sun'iy muhit shunchaki vaqt o‘tkazish makoni bo‘lishdan tashqari, shaxsning o‘zini ifoda etishi va individuallikni shakllantirish maydoniga ham aylanadi [13. B. 2–3].

Virtual hayotda shaxslar turli jamoalarga a'zo bo‘lishi, kiberong orqali turli madaniy muhitlarga moslashishi mumkin. Sherry Turkle "Ekrandagi hayot" ("Life on the Screen") asarida inson shaxsiyatining virtual muhitda transformatsiya bo‘lish jarayonini muhokama qiladi [17. B. 178–180]. Kiberongning kelajak jamiyatidagi roli insonning o‘zini anglash shakllarini qayta ko‘rib chiqishga olib kelishi mumkin.

Kiberong konsepsiyasi kelajak jamiyatining shakllanishiga juda katta ta'sir ko‘rsatishi mumkin. U shaxsiyat tushunchasi, mehnat bozori va ijtimoiy aloqalarni o‘zgartirishi mumkin. Haqiqiy hayot va virtual hayot o‘rtasidagi munosabatlar tobora murakkab tus olgani sari, insonlarning ongi va shaxsiyati haqidagi an'anaviy tasavvurlar ham o‘zgarishi tayin. Bu jarayon axloqiy va huquqiy muammolarni ham yuzaga keltiradi va kelajakda bu mavzudagi falsafiy muhokamalar davom etadi.

Kiberong tushunchasi jamiyat taraqqiyotiga bir necha yo‘nalishlarda ijobiy hissa qo‘shishi mumkin:

1. *Bilim va innovatsiyalar*. Raqamli ong tizimlari ma'lumotlarni qayta ishlash va tarqatish jarayonlarini tezlashtirishi mumkin. Nik Bostrom "Superintellekt" asarida bu jarayon kelajakda intellektual inqilobga olib kelishi mumkin degan fikrni ilgari suradi [16. B. 72–74]. Kiberong tizimlari bilim olish jarayonini avtomatlashtirib, insonlarning ma'lumotga bo‘lgan ehtiyojini qisqartiradi. Bu esa ta'lim tizimi va ilm-fan sohasida yangi modellarni shakllantirishi mumkin.

2. *Ijtimoiy munosabatlar*. Virtual muhitda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar an'anaviy jamiyat modellaridan farqli bo‘lishi mumkin. Sherry Turkle "Ekrandagi hayot" asarida virtual shaxsiyatning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qiladi [17. B. 177–180]. Kiberong muhitida insonlar an'anaviy jamiyat tuzilmalaridan ajralib, virtual shaxsiyat sifatida mavjud

bo‘lishi mumkin. Bu jarayon jamoaviy o‘zlikni anglash va ijtimoiy integratsiya tamoyillariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. *Iqtisodiyot va mehnat bozori*. Raqamlashtirilgan ong ishchi kuchi tushunchasini o‘zgartirishi va iqtisodiyotda yangi modellarni shakllantirishi mumkin [1]. Agar inson ongi raqamli muhitda mavjud bo‘lsa, mehnat bozorida inson resurslariga bo‘lgan talab kamayish ehtimoli mavjud. Bunda ishlash va daromad topishning yangi usullari, masalan, raqamli texnologiyalar tomonidan boshqariladigan avtomatlashgan iqtisodiyot paydo bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Kiberong ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan jamiyatning an’anaviy modellarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. U inson ongi, ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiyot kabi sohalarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kiberongning jamiyatdagi roli kengaygan sari inson hayotining turli jabhalari virtuallashadi va yangi etik hamda huquqiy muammolar yuzaga keladi. Shu sababli bu sohadagi tadqiqotlar jamiyatning raqamli taraqqiyotini chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelajakda inson va texnologiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalalarini ko‘rib chiqishni talab etadi.

Kiberong tushunchasi zamonaviy jamiyat va texnologiyalar rivoji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ta’sir doirasi kun sayin kengayib bormoqda. Kiberong nafaqat axborot oqimlarini boshqarishda, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunga kelib, kiberong inson ongi, kognitiv jarayonlar va jamiyat tuzilmasiga ta’sir etuvchi yangi platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning ijobiy jihatlari qatorida axborotni erkin izlash imkoniyati, yangi bilim manbalariga ega bo‘lish va innovatsion rivojlanishni aytish mumkin. Biroq kiberongning salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, ular axborot manipulyatsiyasi, shaxsiy ma’lumotlarning nazoratsiz tarqalishi va virtual muhitdagi xatarlar bilan bog‘liqdir.

Kiberong masalasiga jiddiy e’tibor qaratish va uning mexanizmlarini chuqur o‘rganish jamiyat barqarorligi va axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberongning kelajakdagi rivoji va uning inson tafakkuri hamda jamiyatga ta’sirini tushunish uchun ko‘ptomonlama yondashuv talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. *Kurzweil R.* The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology. – New York: Penguin Books, 2005. – 672 p.

2. *Dennett D.* Consciousness Explained. – Boston: Little, Brown & Co., 1991. – 511 p.

3. *Descartes R*. Meditations on First Philosophy: With Selections from the Objections and Replies. Translated with an Introduction and Notes by Michael Moriarty. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 330 p.

4. *Husserl, E.* Ideas: General Introduction to Pure Phenomenology. Translated by W. R. Boyce Gibson. – London: George Allen & Unwin Ltd., 1931. – 424 p.

5. *Сартр Ж. П.* Бытие и ничто: Опыт феноменологической онтологии / Перевод с французского В.И.Колядко. – Москва: Республика, 2000. – 639 с.

6. *Markram H.* The Blue Brain Project // Nature Reviews Neuroscience. // London: Nature Publishing Group. – 2006. – Vol. 7. – No 2. – Pp. 153–160.

7. *Musk E.* Neuralink and the Brain’s Future. // Neuralink Research Report. 2017. [Online]. URL: https://waitbutwhy.com/2017/04/neuralink.html (Date of Access: 18.11.2024)

8. Nielsen M.A., Chuang I.L. Quantum Computation and Quantum Information. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 702 p.

9. *Searle J.R.* (1980) Minds, brains, and programs.// Behavioral and Brain Sciences. – 1980. 3(3). – Pp. 417–457.

10. *Chalmers D*. (1996). The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory. Oxford University Press, 1996. – 433 p.

11. Bostrom N. Are You Living in a Computer Simulation? // Philosophical Quarterly. – 2003. 53(211). –Pp. 243–255.

12. *Baudrillard J.* Simulacra and Simulation. – Ann Arbor: The University of Michigan Press, 1994. – 164 p.

13. *Floridi L.* The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 256 p.

14. *Locke J.* Two Treatises of Government. Cambridge University Press. 1988. – 464 p.
15. *European Commission (2021).* Proposal for a Regulation Laying Down Harmonised Rules on Artificial Intelligence (Artificial Intelligence Act).
16. *Bostrom N.* Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 328 p.
17. *Turkle S.* Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. – New York: Simon & Schuster, 1995. – 347 p.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND CYBERCONSCIOUSNESS: THE TRANSFORMATION OF MIND

Hurshid N. Holmirzaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 17-24.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Cyber-consciousness, artificial intelligence, digitalization, mind, metaverse, neurotechnology, subjective experience, ethics, digital environment, virtual life.*

This article analyzes the concept of cyber-consciousness (kiberong), its philosophical and technological foundations, and the relationship between human consciousness and cyber-consciousness. The author examines cyber-consciousness from the perspective of its similarities and differences with human cognition, focusing on its impact on cognitive processes.

The article reviews scientific developments related to artificial intelligence and neural networks, highlighting their crucial role in the formation of cyber-consciousness. The emergence of cyber-consciousness and its influence on human learning, decision-making, and creativity are explored in detail. The author argues that a deeper understanding of cyber-consciousness requires a thorough study of the mechanisms of human cognition.

Cyber-consciousness is studied through the lenses of ontology, epistemology, and anthropology, emphasizing how digital transformation reshapes human identity and social interactions. The philosophical foundations of cyber-consciousness are analyzed within the frameworks of Cartesian dualism, phenomenology, existentialism, and cognitive sciences, providing various perspectives on the digitalization of human cognition. Additionally, the societal impact of virtual life, economic models, and labor market transformations are examined.

The research findings focus on the social and economic aspects of cyber-consciousness, highlighting its potential influence on societal development. The study also underscores that the evolution of cyber-consciousness may introduce new ethical and legal challenges, necessitating further investigation.

Furthermore, the article discusses the interaction between cyber-consciousness and the information society, emphasizing its impact on various aspects of human activity in the era of digitalization. The author explores the social, cultural, and ethical consequences of cyber-consciousness, raising questions about its role in shaping human experience.

The author suggests that cyber-consciousness can be seen either as a competitor to human consciousness or as its extension, stressing the importance of further research into this emerging concept. Additionally, the article examines the management of cyber-consciousness and the balance between its advantages and disadvantages in the context of technological advancements and artificial intelligence development.

Overall, this article sheds light on both the theoretical and practical significance of cyber-consciousness, offering a philosophical and scientific analysis. It also identifies key directions and challenges for future research in this domain.

References:

1. Kurzweil, R. (2005) The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology. New York: Penguin Books.

2. Dennett, D. (1991) Consciousness Explained. Boston: Little, Brown & Co.

3. Descartes, R. (2008) Meditations on First Philosophy: With Selections from the Objections and Replies. Translated with an Introduction and Notes by Michael Moriarty. Oxford: Oxford University Press.

4. Husserl, E. (1931) Ideas: General Introduction to Pure Phenomenology. Translated by W.R.Boyce Gibson. London: George Allen & Unwin Ltd.

5. Sartr, Z.P. (2000) *Bytie i nichto: Opyt fenomenologicheskoj ontologii* [Being and Nothingness: An Essay on Phenomenological Ontology]. Moscow: Respublika.

6. Markram, H. (2006) The Blue Brain Project // Nature Reviews Neuroscience. *London: Nature Publishing Group*. Vol. 7. No 2. Pp. 153-160.

7. Musk, E. (2017) Neuralink and the Brain's Future. // Neuralink Research Report. 2017. [Online]. URL: https://waitbutwhy.com/2017/04/neuralink.html (Date of Access: 18.11.2024)

8. Nielsen, M.A., Chuang, I.L. (2000) Quantum Computation and Quantum Information. Cambridge: Cambridge University Press.

9. Searle, J.R. (1980) Minds, brains, and programs. *Behavioral and Brain Sciences.* 3(3). Pp. 417-457.

10. Chalmers, D. (1996). The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory. Oxford University Press.

11. Bostrom, N. (2003) Are You Living in a Computer Simulation? Philosophical Quarterly. 53(211). Pp. 243-255.

12. Baudrillard, J. (1994) Simulacra and Simulation. Ann Arbor: The University of Michigan Press.

13. Floridi, L. (2014) The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford: Oxford University Press.

14. Locke, J. (1988) Two Treatises of Government. Cambridge University Press.

15. European Commission (2021). Proposal for a Regulation Laying Down Harmonised Rules on Artificial Intelligence (Artificial Intelligence Act).

16. Bostrom, N. (2014) Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford: Oxford University Press.

17. Turkle, S. (1995) Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. New York: Simon & Schuster.

Muallif haqida ma'lumot:

XOLMIRZAYEV Xurshid Nakibillayevich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi dotsenti. E-mail: sokin3548@umail.uz